

To‘ra Bobolovning navbatdagি tadbirkorlar qabuli bo‘lib o‘tdi



Surxondaryo viloyati hokimligida xususiy sektor vakillarini o‘ylantirayotgan muammolarni hal etish hamda yangi istiqbolli g’oyalarini qo’llab-quvvatlash maqsadida navbatdagи “Tadbirkorlar qabuli” o‘tkazildi.

Qabulda viloyatimiz shahar va tumanlaridan 21 nafar tadbirkor o‘zini qiyinayotgan masalalar bo‘yicha viloyat hokimiga murojaat qildi. Murojaatlarning asosiy qismi tijorat banklaridan kredit olish, qurilishga ruxsat berish va boshqa masalalar bilan bog‘liq bo‘ldi.

Qabul davomida tadbirkorlardan tushgan murojaatlarning 7 tasi joyida hal etilgan bo‘lsa, yechimi ma’lum vaqt talab etadigan 14 ta masalalar bo‘yicha tuman hokimlari hamda tegishli mutasaddilariga aniq vazifalar yuklatildi. Barcha murojaatlarning ijrosi viloyat hokimi tomonidan nazoratga olindi.